

AHMAD A'ZAM

BIRI KAM DUNYO

Novella

Ketyapman. Tepamda kop-kok osmon. Qarshimda kirmizi quyosh, botaymi, botmaymi deb, daraxtlarning shoxiga omonat qongan. G'ir-ğir shabada. Asfal t yolkaga top-toza, shinam. G'ivirlab yurgak chumchuklar men yaqinlashganda dik-dik qochadi. Örindi qda yigit bilan qiz huzur qilib o'pishmokda. "Eru xotin — qosh hokiz", degan gapni eslab kuldim qistaydi: shu domboqqina qizning, savağnchdek ingichka yigitchaning terlab-pishib, harsillab omoch tortayotganini ko'z o'ngimga keltiraman. Hazilkash odamlar ham kop-da.

Ketyapman. Daraxtlarning olachalpoq soyasi boshimni silaydi, yolkaga yastanib oladi va oyoğim ostidan sassiz sirğanib otadi. Kokragim chuqurlashib-kengayib ketganu toyib-toyib yutayotganim salqin havo qaytib chiqmayotgandek... Ötkinchilarni bir-bir toxtatib, quvontirgim keladi. Özib ketayotib bir cholga tavoze bilan salom berdim, qolimni koksimga bosib, bosh egdim. Cholning ko'zoynaklari yalt etdi, bir zum menga ağrayib qoldi. Keyin alqadi: "yaxshi joylardan ato qilsin!" Bolmasa-chi? Sal o'tmay yolimda bir qiz uchradi. "yaxshimisiz?", dedim. U istiğno bilan labini burdi, terila-terila sichqonning dumidek ingichka bo'lib ketgan qoshlarini chimirdi. yaxshi joylarda yaxshi qizlar etishadi-da.

Ketyapman. Gullar. Qizğin ochilgan, lovillab turgan gullar! Ko'zga jazillab uradi, yiglaging keladi — shu qadar rasida. Shundoq ro'paramda "yol topibimiz — yuribimiz, pul topibimiz — ichibimiz", deganlardan biri yalp etib uchib tushdi. Ötirib olib qoliga diqqat bilan tikilgach, rosa so'kindi. Boshini silkib pishqirdi-da, "eh, Saodat, Saodat, hozir boramanu..." deya guldiradi. Keyin omganini kotaraman deb, tort oyoqlab qoldi, ornidan turishga ko'zi etmadi, choği, emaklab borib daraxtni quchoqladi, unga osilib kaddini tikladi. Oxiri gandraklay-gandraklay yolgaga tushdi. Qiziğ-a?

Ketyapman. Tepamda kom-kok osmon, qarshimda qirmizi quyosh. Qitiği kelgan tentakka oxshab benihoya xursandman, kulib yuboray deyman. Negaligini bilmayman, bilishni ham istamayman. Öz-özidan, hech bir sababsiz zavqim toshadi. Allaqanday kuy dimoğimda ğivirlyaydi, xirgoyi qilaman, Tezroq uyga etib, oğilchamni qiyqirtirib o'ynatgim, varanglatib plastinka qoygim, xullas, qandaydir ayyuhannos solib, olamni boshimga kotargim keladi. Ichimga siğmayapman.

Ortimdan kimdir kelyapti: "tap-tup", "tap-tup". Shoshilyapti. Mendan otib ketmoqchi. Koramiz!

"Tap-tup" tobora tezlashadi. Qadam tashlashiga qaraganda, boyi pastroqqa oxshaydi. Pishillashiga qaraganda, tez yurib organmagan. Ko'z qirimni tashladim

— elkamdan quyiroqda bir yapasqi burun yuzib chiqdi, silkinib ortda qoldi, yana korindi. yana... Qadamimni tezlataman, “tap-tup” ham kuchaya-di. eh-he, rostdan ham ozib otmoqchi shekilli!

Burun yoqoldi, chiqdi, yoqoldi, chiqdi... Elkamga elimlab qoyilgandek, lipillab kelaverdi.

Unga sira e'tibor bermagandek, osmonga qarayman, yon-tevarakka ko'z yugurtiraman. U tap-tuplab, tapir-tupurlab yor'galaydi. Xuddi u emas, o'zimming elkam betartib pishillayotganga oxshaydi. Erni gursillatib odim otishimdan, boyim uzunligidan, shu odamning mendan otib ketish uchun behuda chiranishidan xursand bo'lib ketaman. Marhamat, yo'l ochiq! Qitmirlilik qilayotganim yoq, oyo'gidan chalayotganim yoq. G'ashiga ham tegmayapman. Qoqilib yiqilishini ham tilamayapman. Qaytangga dalda beryapman. Otib ketsin, marhamat!

Hademay uyga etaman. Sizga aytsam, xotanim xotin emas, butun boshli bir xazina — uyda hech vaqo yoq kezlarda qupquruq havodan bo'lsa ham chuchvara tugib bera oladi. Men-ku, uyga shoshilyapman, bu qayoqqa oshiqadi? Shularni, ayni paytda uni oldinga otkazib yubormaslikni oylab yanada tezroq yuraman.

Xumpar, sira orqada qolay demaydi. Hayronman, kulgim qistaydi. Muncha chiranmasa? Hay, ana otib ketdi ham deylik. Xosh, shu bilan biri ikki bo'ladi-mi? yoki boyiga boy qoshiladimi? Lekin kim bo'lsa ham yaxshi odamga oxshaydi. Tirishqoq, kurashchan ko'rinadi. Bunaqalar quntli, zahmatkash, o'z so'zining ustidan chiqadigan bo'ladi. Birovga osonlikcha haq bermaydi, o'zini xafa qildirib qoymaydi.

O'gayni, menga juda yoqib qolding-ku! Qani, otni qamchila. Past boy, mayda qadam bo'la turib mendan o'zolsang, xudo haqqi, juda quvonaman. Omad tilayman. ey sen, rostdan ham ushlagan joyingdal kesasan shekilli. Lekin men ham chakki emasman, o'gayni. Uncha-munchaga engilmayman. Qeyin, mundoq qaddiqomatni ham solishtir. Sendan qancha uzunman? Zor'ga elkamdan kelasanu yana oldinga otmoqchisan. Sening ikki qadamingni men bitta qilib tashlayapman. Qara, men bemalol, goyo seni payqamagandek, sen bilan bahslashmagandek, bamaylixotir ketyapman. Sen-chi, pitir-pitir qilasan, pishillaysan, lekin yo'ling unmaydi. Charchading ham. Imkondan tashqari narsa yoqligini bilasanmi? “Laylakka etaman deb chumchuqning buti yirilibdi”, degan gapni nahotki eshitmagan bo'lsang?

Konglimda ana shunaqa serzavq oylar. O'zishuvdan zavqlanib ketganman. Ochi'gi, hali uning aftini ko'rmagan bo'lsam ham konglimga juda-juda ornashdi.

Birdan qol siltab, orqada qolib ketsa-ya deb, tashvishlanib ham qoyaman. Unga xayolan dalda beraman, g'alabaga undayman. U ham bosh kelmayapti.

Qaramasam ham payqab kelyapman: o'zay-o'zay deyapti-yu, cho'gi etmayapti. Jorttaga sekinlab qoyaman— u oldinga otib oladi. Keyin uncha zor bermay unga etib olaman-da, otib ketaman. Ikki-uch marta shunday qilaman.

Bu odamning tirishqoqligidan quvonaman. U pishillagani, pildirab yorğalagani sari konglim quvonchga toladi: odamlar sizning zorligingizni maqtamasin, zor ekanligingizni amalda tan olsin!..

Tosatdan unga minnatdorchilik bildirgim, bironta yaxshi gap aytib, elkasiga dostona qoqib qoygim keldi. Qolaversa, natijasi uch karra aniq boʻlgan musobaqadan ham konglim soviyotgan edi.

Shu niyatda unga ogirildim...

Nima kordim deng? Biqqi, pakana, qopqora, yapasqi burun yigit menga olayib qarab turibdi. yuzida, koʻzida yovvoyi mushukni eslatadigan yirtqich bir ifoda bor:

— Ha?—dedi u.

Seskanib tushdim. Zorğa oʻzimni qoʻlga oldim.

— Hech narsa.

Boyni qariyb bilinmaydi, boshi, elkaning davomidek, qapishib ketgan. Bir koʻzi qiyaroq suzilgan.

— Qaydan kelyapsan?— dedi u oshkora tahdid bilan.

- Ishdan - dedim sal choʻchinqirab.

“Hozir janjallashamnz!” degan yoqimsiz, xavotirli fikr miyamdan sovuq gʻimirlab otdi.

— Qaerda ishlaysan?— deb yana savol berdi u.

— Nima edi?—dedim, keyin ataylab — uni ham senlash uchun koshib koʻydim.— Sening oʻzing-chi?

— Men sendan sorayapman,— dedi u.

yaqin ortada hech kim yoʻq edi. Oʻzimni bosib oldim. Unga indamay tikilib turaverdim. Bor kuchimni topladim, deb oyladim ichimda.

— Oʻgayni,— deb taqqa toʻxtadim, u ham toʻxtadi.— Orqamdan kim kelyapti ekan, deb senga karadim, xolos. Senga qarash taqiklangan boʻlsa — ayt! Yoʻqsa — bor, yoʻlingdan qolma. Buncha tirgʻilasan? Nima demoqchisan oʻzi?

U meni boshdan-oyoq kuzatib chiqdi, kutmaganimda birdan yumshadi:

— endi, sorayapman-da,— dedi. yana yoʻlga tushdik.

— Oʻqituvchiman,— dedim, keyin yoʻlgondan qoʻshib qoydim:— Fizkul turadan dars beraman.

U menga sinovchan qarab qoydi.

— Men xolodil nik tuzataman,— dedi.— Chekishdan bormi?

— Chekmayman-da.

— Har kuni shu erdan otasanmi?— deb soradi u.

Bu savol bermasa gapira olmaydi shekilli.

— Ha. Sen-chi?

— Men ham.

— Hech kormagan ekanman-da,— dedim shunchaki, gapni gapga ulash uchun.

— Nega?—deb xayron bo'ldi u. — Hammavaqt budkaning oldida bolalar bilan pivo ichib otyaraman-ku. Baxti, Hakim, Hamid, Sherzod. Zor bolalar! Hakmni taniysanmi?

— Yoq.

— Voy, nega? Upi bir korgan odam darrov taniydi. Sochi jingalak, labi dordoq bola. Shuning uchun otini “Negr” qoyganmiz.

— Bilmadim, balki korgandirman,— dedim.

— Korgansan, korgansan, — dedi u. — Agar har kunn shu erdan otsang, kormasliging mumkin emas. Boksyor, mushti katta-katta. Mening qo'limga bir yarimta keladi.

- Musobaqalarda qatnashadimi?

- Voy, qiziqmisan! Musobaqada nima qiladi? Gaz suv sotadigan avtomatlarga qaraydi. Har kuni oltmish-etmish so'mdan kam topmaydi. Qizlari ja ko'p. Kelishgan bola-da! Zor tashlashadi lekin. yotib ham chikkan, — dedi, bu ham Hakim degan ortog'ining juda katta fazilatidek.

— Nega?—dedim qiziqqan bo'lib.

— E, yigitchilik-da,— deb beparvo qo'l siltadi u.— Avtobusda bitta olifta joy boshatmabdi. O'ziga ishongan-da. Lekin rosa urishgan. Bir hafta kasalxonada qon tuflab yotgan ekan.

— Iya, bu Hakimlarning kopchilik bo'lganmi?

— Ha-da. Uchovi zerikib yurganda shu bola to'g'ri kelib qolgan-da. Nima, Hakim urishsa, ular qarab tursinmi?

— Albatta,— dedim.

Nomard Hakimingni ham xudo kotarsin!

— Ikkita qovur'gasi sinib ketgan ekan. yotqizib olib biqiniga tepgandan keyin... Jigari ezilib ketgandir.

Men indamadim.

— endi quyon bo'lay deb turganda xitlar kep qolgan. Nomardning yonida qizi ham bor ekan, shu dod solibdi-da. Hakim, Sherzod qo'lga tushgan. Zokir qutulgan.

— Hakimning otasi qutqarib qololmadimi?

— E, nimasini aytasan! Rosa yugurdi, boʻlmadi-da. Uch yil otirib chiqdi. Alisher bir yil. Oʻzlari ahmoq — odam koʻp joyda urishadimi? Chetroqqa olib chiq, keyin dabdala qil-da, jona — qani, kim topib olar ekan! Nima deding!

Quyosh botdi. Osmonning rangi siniqib, hammayoqni kulrang parda qoplab oldi. Yoʻldan mashinalar shuvillab otmoqda edi. Birdan koʻnglim siqildi. Kechasi bilan daftar tekshirishim kerakligi esimga tushdi.

— Bugun pivo yoʻq ekan-da,— dedi u.— Mayli, vaqting boʻlsa, chiqib tur. Quyib beraman. Azim deb sora meni. Hammasi biladi.

U burilib ketdi. Koʻkragini shishirib, boshini baland kotargancha tor koʻchaga kirib ketdi. Biron marta ham orqasiga oʻgirilib qaramadi.

Unga anqayib yoʻlka chetidagi temir beton toʻsiqqa qoqildim. Chiqib qolgan qayqi simi oyoʻgimga juda yomon urildi. Shimimning pochasini shimarsam, oyoʻgimning bir enlik joyi qipqizil shilinibdi. Xayriyat, shim yirtilmabdi.

Uyga atigi bir bekat qolgan boʻlsa-da, itar-itar bilan tramvayga ilinib oldim. Tramvay gʻala-gʻovur, dim ekan, nafasim qaytib, bir zumda terga botdim. Ter koʻzimni achishtirdi. Qimdir oyoʻgimni ezgilab bosdi.

Oqsoqlana-oqsoqlana keta turib chontagimni kavlasam, romolcha yoʻq. Befarosat xotin, nuqul ovqatni oʻylaydi. Gumbaz boʻlib semirib ketgan. Hoy, son tegmagan, oquvchilarimning koʻz oʻngida yuzimni qoʻgʻozga artamanmi! Burnim-purnim qonab ketsa nima boʻladi! Qachon aql bitadi senga? Doim: gʻoshg, kartoshka, piyoz... Laʼgʻmonga choʻzilgan xamir olib kelishim kerak emish! Ana, gapni qarang: erkak boshim bilan shaharning oʻrtasida xamir kotarib yuray! e, oʻrgildim sendaqa xotindan! Bitta bolani eplab boqolmaydi, doim chirqillatgani-chirqillatgan. yana bola tarbiyasini oʻrgatadigan konsul tasiyalarga qatnaydilar!

To eshikka etguncha xotinimga daʼgʻdaʼga qildim. Ichimda.

Uyga kirgach, echina solib, toʻgʻri vannaxonaga otdim. Uzoq yuvindim. Sal engil tortib chiqdim.

Ovqatlanib otirib, yoʻldagi voqeani xotinimga aytib bermoqchi boʻldim.

— Hozir kelayotib bir yigit bilan kim tez yurishdan bahslashib qolsak boʻladimi!

Xotinim piq etib kulib yubordi. Jahlim chiqib ketdi.

— Nega kulasan?

— Piyoda yurishdanmi?

— Samolyotdami boʻlmasa?— dedim jahlimga hay berib.— Qarasam, mendan oʻtib ketmoqchi. eh-he, yoʻl boʻlsin, dedim-da... — Xotinimning hali ham iljayib turganini koʻrib, birdan gapirgim kelmay qol-di.— Choydan quy! .

— Keyin-chi!

— Keyinmi? Keyin hech gap b'lgani yo'q... Nega bu kayvoni kampirlarga oxshab sallai dastor qilib qolding?

endi jahlimni bosolmay qoldim.

— Boya bosh yuvgandim. Qurimayapti,— deb ming'irladi xotinim.

— Kir sochiqdan boshqa narsa yo'q ekanmi?! yana dasturxon tepasida! Tur, ko'zimdan yo'qot! Qachon son kiradi senga?

Xotinim yig'lamsirab, indamay ornidan qozg'aldi.

Negadir sira ozimni bosib ololmadim, baqiraverdim:

— Qachon tartib kiradi bu uyga! Nega supurgini tikka qilib qoyding? Un kun bo'ldi polga suv tegmaganiga. Shifon erning changini qara, otingni yozsa bo'ladi...

Og'lim narigi uyda uxlab yotgan edi, chirillab yig'lab yubordi.

yarim soatdan keyin xotinimga hasrat qildim.

— Ke, qoy, hadeb tumshuq qilaverma. Kayfiyatim yomon edi. Shunaqa paytda... bilasan-ku, seni qistoqqa olaman-da. Xosh, sendan boshqa kimga baqiray? “eru xotin — qosh hokiz” deb qadimgilar bekorga aytishmagan. Turmushning og'irligini nazarda tutishgan. Omochning bir tomonini sen tortmasang...

Oz-ozimdan xafa bo'lib ketdim: bolaligim qachon qoladi? Kap-katta odam, ota bo'laturib, ko'chada yurgan kimqayoqdagi bezori bilan ozishib yuribman-a. yaxshi hamki, ozi pasayib qoldi. Mushtlashib, biqin-miqinimga pichoq tortib yuborsa, holim ne kechardi?

Ozim shu haqda oylayapman-u, xotinimga mening ham asabim temirdan emasligi haqida kuyinib uqtiryapman...